

**Umarov Abdumannon Abdullayevich,**

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi dotsenti

Orcid: 0000-0002-8672-6130 e-mail: [abdumannonumarov@gmail.com](mailto:abdumannonumarov@gmail.com)



## MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI FANINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

<https://zenodo.org/records/18893776>

**Annotatsiya:** Maqolada mediasavodxonlik va axborot madaniyati fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodik asoslari tahlil qilinadi. Talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish, media mahsulotlarni baholash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishda interfaol metodlar, raqamli ta'lim vositalari hamda multimedia texnologiyalarining ahamiyati yoritiladi.

**Kalit so'zlar va iboralar:** mediasavodxonlik, axborot madaniyati, pedagogik texnologiya, raqamli ta'lim, interfaol metod, tanqidiy fikrlash.

### USING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING THE COURSE “MEDIA LITERACY AND INFORMATION CULTURE”

**Abstract:** This article analyzes the theoretical and methodological foundations of using modern pedagogical technologies in teaching the course “Media Literacy and Information Culture.” The study highlights the role of interactive methods, digital learning tools, and multimedia technologies in developing students' critical thinking, information analysis skills, ability to evaluate media products, and independent decision-making competencies.

**Keywords and Phrases:** media literacy, information culture, pedagogical technology, digital learning, interactive method, critical thinking.

### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ КУРСА «МЕДИАГРАМОТНОСТЬ И ИНФОРМАЦИОННАЯ КУЛЬТУРА»

**Аннотация:** В статье анализируются теоретико-методические основы использования современных педагогических технологий при преподавании курса «Медиаграмотность и информационная культура». Особое внимание уделяется значению интерактивных методов, цифровых образовательных инструментов и мультимедийных технологий в формировании у студентов навыков критического мышления, анализа информации, оценки медиа-продуктов и самостоятельного принятия решений.

**Ключевые слова и выражения:** Медиаграмотность, информационная культура, педагогическая технология, цифровое обучение, интерактивный метод, критическое мышление.

### **Kirish.**

So'nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tez sur'atlar bilan rivojlanib, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'z ifodasini topmoqda. Global axborot makoni, internet resurslari, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli media vositalarining keng qo'llanilishi talabalarning bilim olish jarayonini tubdan o'zgartirdi. Shu bilan birga, o'quvchilarda axborotni tanqidiy tahlil qilish, media mahsulotlarini baholash va ongli qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish zarurati kuchaydi. Ana shunday vaziyatlarda mediasavodxonlik va axborot madaniyati fanini samarali o'qitish dolzarb masalaga aylanadi.

Mediasavodxonlik – bu shaxsning media axborotni qabul qilish, tahlil qilish, baholash va yaratish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan kompleks jarayon bo'lib, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Axborot madaniyati esa axborot bilan ishlash jarayonida etik me'yorlarga rioya qilish, axborot xavfsizligini ta'minlash va raqamli makonda mas'uliyatli faoliyat yuritish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, mediasavodxonlik va axborot madaniyati fanini o'qitish nafaqat axborotni qabul qilish, balki uni tanqidiy tahlil qilish, manipulyatsiyani aniqlash, hamda mustaqil va ongli qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik amaliyot shuni ko'rsatadiki, an'anaviy dars metodlari talabalar faoliyatini yetarlicha faollashtira olmaydi. Talabalar ko'pincha passiv ravishda bilim qabul qiluvchi sifatida ishtirok etadi, natijada media mahsulotlarni tanqidiy baholash va axborotdan ongli foydalanish ko'nikmalari yetarlicha rivojlanmaydi. Shu sababli pedagogik jarayonda interfaol metodlar, multimedia vositalari va raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Interfaol pedagogik texnologiyalar talabalarni faol ishtirok etishga, o'z fikrini bayon qilishga va real media vaziyatlarini tahlil qilishga undaydi. Multimedia vositalari esa murakkab kontseptsiyalarni vizual va audio ko'rinishda taqdim etishga imkon beradi, shuningdek, talabalarning o'rganish jarayonini individuallashtirishga yordam beradi. Raqamli ta'lim platformalari orqali esa talaba mustaqil ishlash, test topshiriqlarini bajarish va media monitoringni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalarning integratsiyasi o'quv jarayonining sifatini oshiradi, talabalarda tanqidiy fikrlash va axborotni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda ularni raqamli makonda ongli faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Shu nuqtai nazardan, maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning nazariy-metodik asoslari, ularning samaradorligi va o'quv jarayonida tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Globalashuv va raqamli transformatsiya sharoitida axborot oqimi keskin ortib bormoqda. Internet tarmoqlari, ijtimoiy media platformalari va raqamli kommunikatsiya vositalari orqali tarqalayotgan ma'lumotlar hajmi talabalardan yuqori darajadagi mediasavodxonlik va axborot madaniyatini talab etadi. Shu bois oliy ta'lim tizimida "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati" fanini samarali o'qitish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur fan nafaqat axborotni qabul qilish, balki uni tanqidiy tahlil qilish, ishonchliligini aniqlash, manipulyativ ta'sirlarni farqlash hamda axborotdan maqsadli va mas'uliyatli foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bu jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim metodik omil hisoblanadi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya.**

Ma'lumki, ta'lim jarayonida nazariy bilim bilan amaliy faoliyat o'rtasida muayyan metodik "masofa" mavjud bo'ladi. Har qanday pedagogik model real ta'lim jarayonining to'liq nusxasi emas, balki uning ilmiy umumlashtirilgan va didaktik jihatdan qayta ishlangan shaklidir. Shu bois o'quv mazmuni real axborot makonidagi tasodifiy va tizimsiz unsurlardan "tozalanib", maqsadga yo'naltirilgan, metodik jihatdan asoslangan bilimlar tizimiga aylantiriladi. Natijada ta'lim materiali yuqori pedagogik samaradorlik kasb etadi. Pedagogik texnologiyalarni qo'llash jarayonida o'qituvchi o'quv faoliyatining ichki mantiqiga tayanadi: kompetensiyalar mantiqidan metodlar tizimi, metodlar tizimidan esa o'quv natijalari kelib chiqadi. Bu o'zaro bog'liqlik ta'lim jarayonining yaxlitligini ta'minlaydi hamda mediasavodxonlik va axborot madaniyati fanining mazmunini tizimli o'zlashtirishga xizmat qiladi. Zamonaviy tadqiqotlarda mediasavodxonlikni shakllantirish masalasi shaxsning tanqidiy fikrlashi, axborotni tahlil qilish, baholash va undan mas'uliyatli foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bog'liq holda talqin etiladi. Ilmiy manbalarda mediasavodxonlik axborotni izlash, saralash, tekshirish va yaratish ko'nikmalarini o'z ichiga oluvchi kompleks jarayon sifatida baholanadi. Axborot madaniyati esa raqamli etik me'yorlarga rioya qilish, axborot xavfsizligini ta'minlash va media muhitda ongli faoliyat yuritish bilan tavsiflanadi.

### **Natija va muhokama.**

Ta'lim tizimining rivojlanishini hozirgi holatini axborotlashtirishsiz tasavvur qilish mumkin emas. Darhaqiqat, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirishga zamin yaratadi. Bunda pedagogik jarayonning mazmuni takomillashadi, o'qitishning innovatsion modellari joriy etiladi, shuningdek, talaba va o'qituvchilarning hamkorlikdagi faoliyati tashkil etiladi. Bugungi kunda zamon shiddat bilan rivojlanib borar ekan, bo'lg'usi pedagoglardan yana ham yuksakroq marralarni ko'zlash, fan, texnika va texnologiyalar borasidagi yangiliklardan xabardor bo'lish talab etilmoqda. Qadim zamonlardan beri ulug' ajdodlarimiz yangilikka ishtiyoqmand bo'lib kelganlari va sharqda renesans davrini boshlab berganliklarini dunuo hamjamiyati tan olgan. Hususan ilm olishga, hunar o'rganishga, biror bir kasb egasi bolishga intilish bizning bobokalonlarimizda juda kuchli bo'lgan va bu o'z navbatida diyorimizda juda ko'p dunyo ilm-fani rivojida katta hissa qo'shgan allomalar etishib chiqishiga sabab bo'lgan.

Fanini o'qitishdan maqsad, kasb-ta'limi yo'nalishi talabalarida ilmiy faoliyatining asosiy tushunchalari, ta'riflari, bosqichlari va uni olib borishning asosiy usullarini haqida nazariy bilim berish amaliyotga tadbiq etish usullari bilan tanishtirishdan iborat bo'lib quydagi bilimlarni egallashda muhim ahamiyat kasb etadi.

- fan metodologiyasi bo'yicha eng muhim tushunchalar va yo'nalishlar bilimlarni o'zlashtirish;
- asosiy ilmiy metodlar va ularning o'ziga xosligi haqida bilim olish;
- ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borishda tezislarning ahamiyatini o'rganish;
- halqaro konferensiyalarga maqola yozishni o'rganish;
- uslubiy ko'rsatmalarni yaratish va chop etish tartibini o'rganish;
- darslik va oquv qo'llanmalarining ta'lim jarayonidagi ahamiyatini o'rganish;
- ilmiy maqolalar va ilmiy tadqiqotlar faoliyatini o'rganish;
- amaliy loyihalarning ishlab chiqish va taqdim etishdan iborat.

## Ilmiy tadqiqot faoliyati va tushunchalari

- ▶ 1-mavzu. "Ilmiy ta'lim" fanining maqsadi, vazifalari va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi.
- ▶ 2-mavzu. Ilmiy-tadqiqot faoliyatining tuzilmasi va tarkibi.
- ▶ 3-mavzu. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borishda ilmiy uslubiy jurnallar.
- ▶ 4-mavzu. Xalqaro jurnallarda maqola yozish va chop etish tartibi.

### *1-Rasm. eself-study.uz Ilmiy tadqiqot faoliyati va tushunchalari*

www.eself-study.uz – oliy ta'limda talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etish va multimedia vositalaridan foydalanish usullariga mo'ljallangan axborot-ta'lim muhiti "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati" fanida mustaqil ta'limni tashkil etish amaliyotida qo'llanildi, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda muallifning "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati" va "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati fanidan seminar mashg'ulotlarni bajarish" elektron o'quv qo'llanmalarida keltirilgan o'quv materiallari, ilg'or pedagogik texnologiyalar va multimedia vositalaridan foydalanish metodikalari dars jarayonida foydalanildi. "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati" fanidan elektron grafik organayzerlaridan foydalanish asosida mustaqil ta'limni tashkil etishda multimedia vositalaridan foydalanish metodikasi talabalarda AKT orqali mustaqil ta'lim olishga qiziqishlarining oshishiga, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, o'quv jarayonida bilimni taqdim etish bo'yicha kompetensiyalarining qo'llashiga xizmat qildi[2].

Ilmiy tadqiqot (izlanish) uchta tarkibiy qism: insonning maqsadli faoliyati, ilmiy mehnat predmeti va ilmiy mehnat vositalaridan iboratdir. Insonning maqsadli ilmiy faoliyati tadqiqot obyekti haqida (bo'yicha) yangi bilimlarga yoki obyekt haqidagi (bo'yicha) mavjud bilimlarni to'ldirishga erishishda anglab yetishni bilishning aniq usullaridan va ilmiy uskunalaridan (o'lchov, hisoblash texnikalari) mehnat vositalaridan foydalanishga tayanadi. Ilmiy mehnat predmeti tadqiqotining faoliyati yo'naltirilgan tadqiqot obyekti va u haqidagi (oldingi) bugungacha bo'lgan bilimlar. Tadqiqot obyektiga moddiy dunyoning har qanday materiali (elektrotexnik uskunalar, elektrlashtirilgan qurilmalar, mashina va mexanizmlar), jarayonlar (texnologik, energetik, agrotexnik, elektromagnit, moddiy materiallar elementlari va h.k.lar) kiradi. Ilmiy tadqiqotlar, ko'zlangan maqsadi, tabiat yoki ishlab chiqarish bilan bog'liqlik darajasi, ilmiy ishning xarakteri va chuqurligiga (qamroviga) qarab fundamental, amaliy va ishlanmalarga bo'linadi. Fundamental tadqiqotlar prinsipial yangi bilimlarni (yaratish) barpo etish va oldinda mavjud bilimlar sistemasini rivojlantirishga qaratiladi va undan maqsad tabiatning yangi qonunlarini yaratish (kashf etish) voqeliklar orasidagi bog'liqliklarni ochib berish va yangi nazoratlar yaratishdir. (Masalan, elektromagnit maydon nazariyasi agroinjeneriyada resurslar tejankorligi ilmiy – metodologiyasini yaratish, energiyani muhitda harakatlanishi qonunini va h.k.lar). Amaliy tadqiqotlar texnika sohasida yangi ishlab chiqarish vositalarini, iste'mol mahsulotlarini va h.k.larni yaratish yoki mavjudlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, uni maqsadi fundamental

tadqiqotlarda to'plangan ilmiy omillarni amaliy tadqiqotlar orqali o'z o'rniga qo'yishdir[2].

Innovatsion ta'lim texnologiyalari tushunchasi, uning ta'riflari, metodikadan farqi Innovatsion ta'lim texnologiyasi - bu o'quv jarayonining samaradorligini oshirish va ta'lim faoliyati uchun eng yaxshi shartsharoitlarni yaratish uchun mavjud usullar va vositalarni yangilash yoki sifat jihatidan yaxshilashni o'z ichiga olgan o'quv va ta'lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasidir. Ta'limdagi innovatsiyalar esa o'qitish va o'rgatish sohasidagi innovatsiyalarning paydo bo'lishiga qaratilgan kompleks tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu innovatsiyalar ta'lim jarayonini tashkil etishning usul va uslublari, ta'lim va tarbiya jarayonida foydalaniladigan resurslar, ilmiy nazariyalar va tushunchalarni ifoda etadi. Innovatsiyalar ta'lim faoliyati jarayonida ham rivojlanadi. O'quv jarayonida bilim oluvchilarning nazariy va amaliy bilimlari rivojlanadi, keyinchalik ular amaliy hayotning innovatsiyalar yaratish bilan bog'liq turli sohalarida qo'llanilishi mumkin[3].

Innovatsion usullarning eng muhim belgisi sifatida natijalanganlik o'qituvchi faoliyatida ijobiy yutuqlarga erishilgandagina namoyon bo'ladi. O'lchovlardagi texnologiklik, kuzatuvchanlik, natijalarning qayd etilganligi o'qitishning yangi usullari, metodlarini baholash orqali namoyon bo'ladi. Mazkur o'lchovning ahamiyatli jihati shaxs, uning idroki va tushunchalarini shakllantirishning bir butunligida namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan innovatsion jarayonni ilmiy g'oyani amaliy foydalanish bosqichiga olib chiqish va shu bilan bog'liq ijtimoiy pedagogik muhitdagi o'zgarishlarni amalga oshirish jarayoni deb hisoblash mumkin. G'oyalarning innovatsiyaga aylanishini ta'minlaydigan va bu jarayonni boshqarish tizimini shakllantiradigan faoliyat bu innovatsion faoliyatdir. Innovatsiya jarayoni rivojlanish bosqichlarining yana bir o'ziga xos xususiyati mavjud. Pedagogik tajribada pedagogik innovatsiyalarni ijodiy qo'llash alohida o'qituvchilar ish faoliyatining boshlang'ich bosqichida namoyon bo'ladi[3].

### **Xulosa.**

Bugungi kunda ta'lim jarayoni global axborot maydoni bilan uzviy bog'liq bo'lib, talabalar nafaqat bilim olish, balki media resurslaridan ongli va tanqidiy foydalanish qobiliyatini rivojlantirishga majburdir. Shu nuqtai nazardan, mediasavodxonlik va axborot madaniyati fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Maqolada ko'rsatib o'tilganidek, interfaol pedagogik metodlar, multimedia vositalari va raqamli ta'lim platformalari talabalarining tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish, media mahsulotlarni baholash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Interfaol metodlar o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularda mustaqil fikrlashni rag'batlantiradi va real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Multimedia vositalari esa murakkab kontseptsiyalarni vizual va audio ko'rinishda taqdim etib, mavzularni osonroq va chuqurroq tushunishga yordam beradi. Raqamli ta'lim resurslari talabalarga o'zlashtirish jarayonini individuallashtirish va mustaqil ishlash imkonini beradi.

Pedagogik texnologiyalarni qo'llash talabalarda axborot xavfsizligi, raqamli etikaga rioya qilish va mas'uliyatli media faoliyati ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Bu esa nafaqat fan mazmunini chuqurroq o'zlashtirish, balki talabalarining real hayotda axborot bilan ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqolada tahlil qilingan nazariy-metodik yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, pedagogik texnologiyalarni integratsiyalashgan tarzda qo'llash mediasavodxonlik va axborot madaniyati fanini o'qitishda o'quv jarayonini samarali tashkil etishga imkon

beradi. Bu yondashuvlar talabalarning o'z fikrini mustaqil ifodalash, media mahsulotlarni tanqidiy baholash va murakkab axborot vaziyatlarida ongli qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Natijada, mediasavodxonlik va axborot madaniyati fanini pedagogik texnologiyalar yordamida o'qitish nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki talabalarning axborot makonida ongli va mas'uliyatli harakat qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa zamonaviy ta'lim jarayonining dolzarb talablariga javob beradi va oliy ta'lim muassasalarida ta'limning innovatsion yo'nalishlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Kelajakda mediasavodxonlik va axborot madaniyati fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalarni yanada rivojlantirish, interfaol va multimedia metodlarni kengaytirish, raqamli platformalardan foydalangan holda amaliy vazifalarni integratsiyalash orqali talabalarning mustaqil ta'lim ko'nikmalarini chuqurroq shakllantirish imkoniyati mavjudligi ta'kidlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

12. Zakharova I. G. Information technologies in education.-M.; Academy. 2008 - p.192
13. Gershunsky B.S. Philosophy of Education-M.; 1998. –p.210
14. Aysmontas B.B. Pedagogical psychology, Schemes and tests - M.; publishing house VLADOS-PRESS, 2004.-p.63.
15. Sukhomlinsky V.A. I give my heart to children. - Kyiv, 1972, - p. 95
16. Stones E. Psychopedagogy - M.: practice, 1984, -p.158
17. Umarov A. Modern Pedagogical Technologies in the Educational Process. International journal of innovative research, In Computer & Communication engineering Volume 9, issue 1, January 2021 impact factor: 7.488 -P. 127-130.
18. Umarov A. Мультимедиа технологияларини ўргатувчи педагогик дастурий воситалари. “Ilm sarchashmalari” ilmiy-nazariy, metodik jurnal, Elektron Jurnal, Urganch-2021. sentabr soni, -B.108-110
19. Umarov A. The Role Of Multimedia In The Independent Education Of Students. The American Jurnal Of Social Science And Education Innovations, 2(11), -P. 152-155 USA 2020 Impact Factor 5.525
20. Umarov A., Mamanazarov B. Методика преподавания специальных предметов в учреждениях высшего профессионального образования. Аэтерна научно-издательский центр. международный научный журнал инновационная наука ISSN 2410-6070 №7/2020 –С. 83-85.